

TERRORIZM – UMUMBASHARIY GLOBAL MUAMMO

Olimjonov Ozodbek Odil o'g'li
IIV Akademiyasi 204-guruh kursanti

Annotatsiya

Maqolada terrorizmning umumbashariy global muammolardan biri ekanligini, jahon hamjamiyati tomonidan ushbu global muammoni hal etish borasida olib borayotgan sa'iy harakatlar va soha mutaxassis olimlarining fikr qarashlari hamda terrorizmga qarshi kurashishda xorij tajribalari.

Tayanch so'zlar: Terrorizm, ekstremizm, global muammolar, terroristik tashkilotlar, terrorizmga qarshi kurashish, jinoyat, jinoyat kodeksi, jahon hamjamiyati.

ТЕРРОРИЗМ – ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКАЯ ГЛОБАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА**Аннотация**

В статье указывается, что терроризм является одной из общечеловеческих глобальных проблем, усилия мирового сообщества по решению этой глобальной проблемы, мнения специалистов в данной области, зарубежный опыт борьбы с терроризмом.

Ключевые слова: Терроризм, экстремизм, глобальные проблемы, террористические организаци, борьба с терроризмом, преступность, уголовный кодекс, мировое сообщество.

TERRORISM IS A UNIVERSAL GLOBAL PROBLEM**Annotation:**

The article states that terrorism is one of the universal global problems, the efforts of the world community to solve this global problem, the opinions of experts in the field, and foreign experiences in fighting terrorism.

Keywords: Terrorism, extremism, global problems, terrorist organizations, fight against terrorism, crime, criminal code, world community.

Bugungi rivojlanib borayotgan ilm-fan va texnologiyalar asrida, insonlar barcha soha va yo'nalishlarda ilg'or kashfiyotlar, yangiliklar yaratib kelmoqda. XXI asrga kelib insonlarning, ayniqsa 30-yoshgacha bo'lgan yoshlarning ilm-fanga, yangiliklarga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Shuningdek, bugungi kundagi terroristik hamda zo'rovonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyatini ming afsuski ushbu 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etayotgani ham achinarli holatdir.

Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning terrorizm va ekstremizm haqida qo'yidagi gaplarini eslab o'tish joiz hisoblanadi: "Ayni vaqtda xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfining tobora ortib borayotgani, dunyoning ayrim mintaqalarida qurolli to'qnashuvlar sodir etayotgani, tahlikali vaziyat saqlanib qolayotgani O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga tahdid solmasdan qolmaydi,

albatta. Bularning barchasi oldimizda paydo bo'layotgan tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga doimo tayyor bo'lishni talab etadi."¹

Bugungi globallashuv davrida insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy ma'naviy-madaniy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Shunday o'zgarishlar natijasida, ko'plab dolzarb bo'lgan ta'sir doirasi jahon hamjamiyatini qamrab olgan, insoniyatning kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotini belgilab berayotgan muammolar vujudga kelgani hech birimizga sir emas. Bu muammolar insoniyatning global muammolaridan biri sanaladi hamda butun dunyo hamjamiyati ushbu global muammolarni hal etish borasida yillar davomida kurashib kelmoqda. Pirovard natija haligacha o'zgarishsiz qolmoqda. Buning sabab va omillarini o'rganib tahlil qilayotgan dunyo hamjamiyati soha mutaxassis olimlari tomonidan buning yechimini izlash borasida sa'iy harakatlar olib borishmoqda.

Terrorizmning ko'lamlari va uning davlatlararo xususiyati unga qarshi harakatning xalqaro tizimini yo'lga solishni, turli davlatlarning ma'naviy intilishini uzoq muddatli asosda va eng yuqori darajada muvofiqlashtirishni, unga qarshi kurash bo'yicha xalqaro tashkilotlar tuzishni o'ta zarur qilib qo'ydi.

Terrorizm, ayniqsa xalqaro terrorizm tushunchasi, huquqshunoslar, kriminalistlar, ushbu sohadagi amaliyotchi va siyosatchilarning munozara predmeti bo'lib kelmoqda. Bu tushunchaning yagona ifodasi hali ishlab chiqilmagan, bu esa bir qator siyosiy va boshqa amaliy muammolarni hal etishni to'xtatib turibdi. Bunday holatga yo'l qo'yish mumkin emas, zamonaviy fan qayd etilgan muammoni hal etish uchun barcha zaruriy ma'lumotlarga ega. Biz uning negiziga terrorizm - bu vahimaga solish orqali maqsadga intilish ekanligi haqidagi tasavvur qo'yilishi lozimligini tasavvur qilamiz. O'ylaymizki, bu faktor boshqalari bilan birgalikda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Terrorizm tushunchasiga turli ta'riflar berilgan. Bu ta'riflar uning manfur basharasini ochib berishga xizmat qiladi. Lekin bir turkum ta'riflar borki, ular bu kasofatning "ichki dunyosi"ni ochib beradi. Masalan, Fransiya Fanlar Akademiyasi XVIII asrda chop etgan lug'atida terrorizmni "qo'rqitish tizimi" deb ta'riflaydi. Boshqa guruh olimlar terrorizmni "harakat orqali targ'ibot" deb ataydilar.

Ayrim manbalarda esa terrorizmga "qo'rqitish siyosati" deya nisbat beriladi². Ko'rinib turibdiki, terror va qo'rquv egizak tushunchalardir³. Insonlarni qo'rqitishdan maqsad esa jamiyatda vahima va sarosima, parokandalik va beqarorlik keltirib chiqarishdir. Demak, aholida zo'ravonlik oldida himoyasizlik hisini tug'dirish terrorizmning asosiy xususiyatidir⁴.

Terror - atamasini birinchi bor Arastu qadimgi yunon teatrlaridagi tragediyalarda tomoshabinlarning his-tuyg'ulariga ta'sir etish maqsadida "qo'rqinch" ma'nosida qo'llaydi. Terror so'zining lotin tilidagi birlamchi ma'nosi "qo'rqinch", "dahshat"ni anglatadi.

Terrorchilik bir siyosiy atama sifatida, qurol sotish, narkobiznesni rivojlantirish, konstitutsion tuzumlarni ag'darish va boshqa tuban maqsadlarga erishish uchun, aytib o'tilgan turli jinoiy yo'llardan foydalanishni zarur va joiz deb biladigan kimsalar va tashkilotlarning g'arazli maqsadlariga erishish yo'lidan iborat.

Terrorchilik hech qachon ezgulikka qaratilgan emas, aksincha har doim insoniy me'yorlar, umuminsoniy qadriyatlar va ahloqiy fazilatlarga qarshi ishlatilganligi uchun eng og'ir va vaxshiyona jinoyat hisoblanib kelgan.

¹ Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish: muammo va yechimlari B.matlyubov

² Салимов К.Н. Современные проблемы терроризма. –М., 2000. –С.8

³ Терроризм тўғрисида нима биламиз <http://old.muslim.uz>

⁴ Умарова Н. Замона зулмни кўтармас ёхуд инсоният кулфати ҳақида // Халқ сўзи. 2000 йил 6 декабрь

Terrorchilik din, millat, elat va chegara bilmaydi. Eng vahshiy, madaniyatsiz va insoniy xislatlarini yo'qotgan ashaddiy jinoyatchilar, bu qabih ishga qo'l uradilar⁵.

Terrorchilik uzoq o'tmishga ega bo'lib, son-sanoqsiz begunoh odamlarning hayotiga zomin bo'lib kelgan. Dunyoning mashhur shaxslari, yirik olimlar va davlat arboblari uning qurboniga aylanishgan. AQShning Prezidentlari Avraam Linkoln, Jon F. Kennedi, Hindiston rahbarlari Maxatma Gandi, Indira Gandi va uning o'g'li Radjiv Gandi, Misr Arab Respublikasi Prezidenti Anvar Sadat, shuningdek, "Siyosatnoma" kitobining muallifi Xoja Nizomul-mulk, uning o'g'illari va boshqa ko'p porloq siymolar shular jumlasidandir⁶.

Terrorizm – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholining keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos usulidir. U yashirin ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadida qo'llaniladi. Terrorchi uyushmalar ommaviy bo'la olmagan uchun ham ko'p hollarda aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg'otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri bunday harakat tarafdorlarining "zo'rlik davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi", – degan g'oyaga asoslanib harakat qilishlarida yaqqol ko'rinadi. Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo'lmayotgan, tinchlik hukmronlik qilayotgan, jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko'rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo'rlik yo'li bilan hal qilishga intilishda ko'rinadi. Bunday siyosiy masalalar o'z navbatida hududiy, etnik, diniy yoki boshqa shaklu shamoyil kasb etishi mumkin.

Amerikalik mutaxassis B.Jenkins terrorizmni eng avvalo, qurbonlardan ko'ra guvohlarga qaratilgan va vahima uyg'otishga yo'naltirilgan zo'rlik, deb baholaydi. Boshqa bir amerikalik siyosatshunos J.Lo'ning ta'rifiga ko'ra, terrorizm bevosita qurbonlardan ko'ra ko'proq odamlar fikriga ta'sir o'tkazish uchun qilinadigan tahdid yoki kuch ishlatishdir.

Bizningcha bu ta'rif va baholarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalarga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgan ta'kidlangan. Xuddi shu ma'noda, alohida olingan har bir terrorchilik xurujining maqsadi ekstremistlarning davlat to'ntarishini amalga oshirish, fuqarolar urushini keltirib chiqarishdek siyosiy vazifalar bilan bir-biriga mos kelavermasligi oldindan ma'lum. Keyinchalik, amalda, bu nomuvofiqlik terrorchilar jar solayotgan maqsadlar bilan ular erishayotgan natijalar o'rtasidagi ziddiyatga aylanadi.

Bizning fikrimizga ko'ra—"Terrorizm – o'zining asosiy maqsadiga erishish yo'lida shaxsning hayotiga xavf tug'dirish orqali moddiy ob'ektlarni yo'q qilib, davlatni va xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish orqali xavfsizligiga putur yetkazib, qurolli to'qnashuvlar keltirib chiqarish hamda o'z zo'rligidan foydalangan holda aholini qo'rquvga solish orqali ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan jinoiy xavfli qilmishlardir".

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ko'deksining 155-moddasida esa terrorizmga quidagicha ta'rif berilgan: "Terrorizm – xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy

⁵ Терроризм тўғрисида нима биламиз <http://old.muslim.uz>

⁶ Бу ҳақда тўлароқ қаранг: *Убайдуллаев У. Ҳалқаро терроризм: тарихи ва замонавий муаммолари.* –Т., 2002. –Б.4-12.

yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish maqsadida davlatorganini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy va yuridik shaxsni biron bir faoliyatni amalgam oshirishga yoki amalgam oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo'rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug'diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish taxdidi, shuningdek, terrorchilik tashkilotining mavjud bo'lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishini taminlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag' vositalar va resurslar berish va yig'ishga, boshqa xizmatlar ko'rsatishga qaratilgan faoliyat".deya ta'rif berilgan bo'lib, ushbu ta'rif "Terrorizmga qarshi kurash to'grisida"gi qonunning 2-moddasidagi, ya'ni Asosiy tushunchalar nomli 2-moddasidagi terrorizm hamda terrorizmni moliyalashtirish tushunchalarini qamrab oladi.

Terrorizm odamlarning ertangi kuniga bo'lgan ishonchiga putur yetkazibgina qolmay, balki xalqaro maydondagi muammolarni, jumladan, turli e'tiqod vakillari bo'lgan xalqlar orasidagi o'zaro ishonchga soya solib, jahon taraqqiyotining xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorlikning rivojiga to'siq bo'lmoqda. Ekspertlarning xabar berishicha, deyarli barcha din niqobi ostidagi terroristik tashkilotlarning barchasi yangiliklarni "kufr"deb atasalarda o'zlari tomonidan hozirgi zamonaviy vositalardan foydalanishga harakat qilishmoqda.

Masalan, dunyodagi terroristik tashkilotlarning yuzdan ortig'i eng zamonaviy qurollar bilan qurollangan va bu tashkilotlar bir-birlari bilan axborot almashadilar, qo'poruvchilik ishlarini amlaga oshirayotgan paytda o'zaro sherik bo'ladilar, zarur bo'lgan vaqtda bir-birlariga moliyaviy va boshqa shakldagi yordam beradilar hamda saflarini kengaytirish maqsadida internet tarmoqlaridan keng foydalanib kelinmoqda.

Manashunday terroristik tashkilotlarning eng yiriklari qatoriga "Musulmon birodarlari"(1928-yil mart oyida Misrning Islomiya shahrida Hasan al-Banno tomonidan asos solingan), "Al-Qoida"("Butunjahon yahudiy va xristianlarga qarshi kurash islom jihodi fronti" bir qator xalqaro diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlar bazasidan iborat,tashkilot asoschisi Usoma bin Lodin) "Iroq va Shom islom davlati" ("ISHID"), "Jabhat an-nusra"(salafiy-jihodiy yo'nalishidagi harakat bo'lib, 2012- yil yanvarda Suriyada yuzaga kelgan) "Boko haram", "Hizbut-tahrir", "Tolibon" va boshqa terroristik tashkilotlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shunday ekan bugungi kunda global muammolar- umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari. XX asrning ikkinchi yarmi XXI asrda xalqaro maydonda o'zining salbiy ta'siri bilan tanilgan, shubhasiz,ekstremizm bilan oziqlanib turgan, dinniy shiorlar bilan burkanib olgan terrorizmdir.

Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi dunyoda 500 ga yaqin terrorchi tashkilotlar ish olib bormoqda. 1968-1980-yillar davomida ular 6700 ga yaqin terrorchilik amaliyotlarini sodir etganlar. Natijada 3668 kishi halok bo'lib, 7474 kishi turli jarohatlar olgan. 1970-2019-yillarda yer yuzida 195 mingdan ortiq terrorchilik aktlari sodir etilgan. So'nggi 10 yil mobaynida terrorizm 200.000 dan ortiq kishining o'limiga sabab bo'ldi. Ularning yarmidan ziyodi beshta davlat ulishiga to'g'ri keladi. Ular: Iroq, Pokiston, Suriya, Afg'oniston va Hindiston hududida amalga oshirilgan.

2019-yilda dunyodagi 163 ta mamlakat ichida 63 ta davlat terrorchilik harakatlaridan zarar ko'rgan. Terrorizm o'zining eng yuqori cho'qqisiga 2014-yil chiqqan bo'lib."ISHID", "Boko haram", "Fulani", "Tolibon" kabi guruhlar amalga oshirgan terroristik aktlar natijasida 2014-yilda vafot etganlar soni

33826 ta bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich pasayib 13826 kishini tashkil qilgan. 2019-yilda dunyoda sodir etilgan 8300 dan ziyod umumiy terroristik aktlar natijasida 25.000 dan ziyod kishi qurbon bo'lgan.

Ularning eng ko'pi, ya'ni 11mingdan ortig'i Afg'oniston, Yaman, Hindiston Iroq, Nigeriya, Pokiston, Suriya va Somaliga to'g'ri keldi.

So'nggi yillarda jahon hamjamiyati tomonidan amalga oshirilgan terrorizmga qarshi kurash natijasida 2020-yilda 60%ga pasaygan, ya'ni 13ming 826 nafarni tashkil qildi. Bugungi kunga kelib boshqa davlatlarga nisbatan dunyoning 15 dan ziyod davlatlarga terrorizm ko'proq xavf solmoqda. Bu davlatlar qatoriga Sudan, Misr, Suriya, Malayziya, Indoneziya, Falastin, Iroq, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Jazoir, Liviya, Senegal, Pokiston va boshqa davlatlarda terrorizm eng ashaddiy ildiz otgan davlatlar sirasiga kiradi. Hozirgi kunda eng dahshatli qo'poruvchilik ishlari Suriya, Iroq va Afg'oniston davlatlari hududlarida sodir bo'lmoqda.

Terrorizmning jamiyatga zararlari qatoriga quidagilarni kiritish mumkin:

- Begunoh odamlarning qoni to'kilishi;
- Mol-mulklarga zarar va talofatlar yetkazilishi;
- Jamiyatda qo'rquv va xavfning paydo qilinishi;
- Davlat va boshqaruvni amalgam oshiruvchi subektlar(rahbarlar)ga qarshi isyon;
- Tartibsizliklar kelib chiqishi;
- tarqoqlik va bo'linish va boshqalar.

Jamiyatda diniy asosda nizolar chiqishiga yo'l qo'ymaslik, dinni siyosilashtirish va soxtalashtirish, terroristik harakatlar orqali orqali mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan har qanday harakatning oldini olish davlat va jamiyatning oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda terrorizm alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligi va umuman jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid solayotgan omilga aylandi. Umumbashariy global muammoga aylangan terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy manfaatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina yenga olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan ayni haqiqatdir. Terrorizm illatining so'nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ham bu masala yuzasidan: "Ayni vaqtda dunyoning ba'zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o'z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda" deb so'zlaganlar.

Ta'kidlash joizki, turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan faoliyatini davom ettirmoqda. Shu nuqtai-nazardan, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev jahon hamjamiyati e'tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga qarshi samarali kurashishni Birlashgan millatlar tashkiloti preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida ta'minlash

mumkin ekaniga, xavfsizlikka tahdidlarni “o'ziniki va o'zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga qaratmoqda.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi⁷ nutqida “terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim”⁸ vazifa ekanligiga e'tibor qaratdilar:

Bugungi kunda mamlakatimizda ekstremistik g'oyalar girdobiga tushib, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolar ijtimoiy reabilitatsiya va ularni sog'lom hayotga qaytarishda zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Shu nuqtai-nazardan, Prezidentimizning ikki global ahamiyatga ega, ya'ni yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning “Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiya”sini ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi takliflari barcha mamlakatlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi va qo'llab-quvvatlandi. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan mazkur rezolyutsiyaning qabul qilinishi Prezidentimiz ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi bo'ldi.

Terrorizm va ekstremizm tahdidlariga qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan samarali chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi jinoyatlar soni, ayniqsa, 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar o'rtasida oldingi yillarga nisbatan keskin kamaydi. Bu Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasi tomonidan “Terrorizmga qarshi kurash-chegara bilmas hamkorlik” mavzusida tashkil etilgan VI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada qayd etib o'tildi.

So'nggi yillarda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha huquq-tartibot idoralari tizimida xodimlar qayta o'qitilib, bilim va malakalari oshirildi. Mazkur turdagi jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslar bilan ishlashda, aybi isbotlangan jinoyatchilarga nisbatan sud tomonidan jazo tayinlash tizimida va boshqa shu kabi faoliyat jarayonlarida ham ulkan ijobiy ishlar olib borildi. 2019-2021-yillar davomida davlatimiz rahbarining tashabbuslari va bergan topshiriqlari asosida dunyoning qurolli mojarolar davom etayotgan mintaqalaridan yurtdoshlarimizni respublikamizga olib kelish bo'yicha bir necha bosqichli “Mehr” deb nomlangan insonparvarlik operatsiyalari amalga oshirildi.

Bu kabi xayrli ishlar nafaqat shu mamlakatda istiqomat qilayotgan aholining osuda hayot kechirishi uchun, balki mintaqalarning tinchligi va osoyishtaligi saqlashda ham katta ahamiyatga ega.

Terrorizmga qarshi kurashish borasida respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar davlatimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, insonparvarlik tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi turli xalqaro tashkilotlar va institutlarning yuksak darajadagi e'tiroflariga ham sazovor bo'lyapti.

Jumladan, Xalqaro iqtisodiyot va tinchlik institutining an'anaviy “Terrorizm global indeksi” ko'rsatkichlariga ko'ra, O'zbekiston 2016-2020-yillarda terrorizm xavfi kam yoki xavf juda past davlatlar qatoriga kiritilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib terrorizmga qarshi kurashishda xorijiy davlatlar ish tajribalarini ham o'rganib chiqish maqsadga muvofiq. Misol uchuni Ukraina davlati misolida:

Terrorizmga qarshi ish olib borishdan kutilayotgan natijalar quyidagilardan iborat:

⁷ 19 Avg 2021 <http://dba.uz/wpcontent/uploads/.pdf> <http://dba.uz>

⁸ Экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий ва ғоявий жараёнлари 31 Dek 2019. <https://elibrary.ru>

– terrorchilik tahdidlarini o'z vaqtida aniqlash;
– terroristik faoliyatni mustahkam va har tomonlama aniqlash va samarali ogohlantirish tizimini joriy etish;

– asosiy ittifoqchilar va noan'anaviy hamkorlar bilan axborot almashinuvini samarali amalga oshirish. Taqiqlash razvedka va huquqni muhofaza qilish organlarining terrorchilarni terrorchilik faoliyatini amalga oshirish vositalari va imkoniyatlaridan mahrum qilishi mumkin bo'lgan harakatlarida yotadi. Jamiyatda terrorizm darajasini pasaytirish maqsadida og'irlik markazini xavfli ijtimoiy omillarni aniqlash va zararsizlantirishga yo'naltirish orqali davlat boshqaruvi jarayonini takomillashtirish;

– Ukrainadagi terrorizm tahdidining haqiqiy holatini tahlil qilish asosida terrorizmga qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatini tuzatish;

– moddiy-texnikaviy va moliyaviy resurslarni terrorizmga qarshi kurash sub'ektlari faoliyatini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga jamlash, mutanosib kadrlar siyosatini amalga oshirish.

Xulosa. Xalqaro terrorizm global ijtimoiy jarayonning ko'rinishiga aylanib bormoqda. Har bir davlat o'z milliy qonunchiligini o'zaro bog'liq bo'lgan huquqiy hujjatlar tizimini shakllantirish va yaratish, ularda terrorchilik faoliyatining oldini olish, unga qarshi kurashish va oldini olish uchun zarur bo'lgan aniq sub'ektlarni va izchil harakatlar majmuini belgilash, shuningdek, terrorizmga qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqish va profilaktika choralari shakllantirish orqali rivojlanishi kerak.

Bu masalalarni hal etish davlat xavfsizligini mustahkamlashga, odamlarning ommaviy o'limini va fuqarolarning ijtimoiy hayotidagi boshqa huquqbuzarliklarning oldini olishga, shuningdek, siyosiy-huquqiy, tashkiliy, boshqaruv, kadrlar, ta'lim va ilmiy-tadqiqot muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish: muammo va yechimlari B.matlyubov
2. Бу ҳақда тўлароқ қаранг: Убайдуллаев У. Ҳалқаро терроризм: тарихи ва замонавий муаммолари. –Т., 2002. –Б.4-12.
3. Салимов К.Н. Современные проблемы терроризма. –М., 2000. –С.8
4. Терроризм тўғрисида нима биламиз <http://old.muslim.uz>
5. Умарова Н. Замона зулми кўтармас ёхуд инсоният кулфати ҳақида // Халқ сўзи. 2000 йил 6 декабрь
6. Терроризм тўғрисида нима биламиз <http://old.muslim.uz>
7. 19 Avg 2021 <http://dba.uz/wpcontent/uploads/.pdf> <http://dba.uz>
8. Экстремизм ва терроризмга қарши курашнинг маънавий ва ғоявий жараёнлари 31 Дек 2019.<https://elibrary.ru>